

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

## BIR VA IKKI URUG'PALLALI O'SIMLIKLER POYALARINI TUZILISHI

**Abdumo'minova Nilufar Zokirjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezida poya va uning tuzilishi. Bir va ikki urug'pallali o'simliklarning poyalarini tuzilishi, shakllari, to'qimalari vazifalari hamda ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Turli o'simlik vakillari poyasi tuzilishi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so`zlar:** poya, ildiz, o'sish konusi, kurtak, epiderma, periderma, floema, ksilema, kambiy, meristema, parenxima.

## СТРОЕНИЕ ОДНО И ДВУХСЕМЯННЫХ РАСТЕНИЙ

**Аннотация.** Работа ног и ее структура на этой скорости. Стебли одно- и двухсемянных растений получают информацию об их строении, форме, тканях, функциях и значении. О строении лапы у представителей разных растений уже упоминалось.

**Ключевые слова:** стопа, корень, конус роста, почка, эпидермис, перицерма, флоэма, ксилема, камбий, меристема, паренхима.

## STRUCTURE OF SINGLE AND TWO SEDED PLANTS

**Annotation.** Footwork and its structure at this speed. The stems of single and two seeded plants are given information about their structure, shapes, tissues, functions and importance. About the structure of the paw of representatives of different plants has been mentioned.

**Keywords:** rod, root, growth cone, bud, epidermis, periderm, phloema, xylema, cambium, meristema, parenchyma.

### KIRISH

Poya o'simliklarning vegetativ organlari qatoriga kirib, muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Poyaning uch qismida o'sish konusi birlamchi meristema urqimalaridan shakllangan bo'lib, biroz buklangan va ustma-ust joylashgan barglar bilan himoya qilinadi. O'sish konusining tub qismida mayda-mayda kurtak hosil bo'ladi. Ulardan yon barglar shakllanadi. Har qanday barg o'sish konusi tubida joylashgan do'nglikdan vujudga keladi. Bu do'ngliklar meristema to'qimasining sirt qatlamidan vujudga keladi. Birlamchi do'ngliklarda novda hosil qiladigan kurtaklar shakllanadi. Barg qo'llig'idagi kurtaklar ham tuzilishiga ko'ra uchki kurtaklarga o'xshash, o'rta iqlimli mintaqada tarqalgan o'simlik kurtaklari bir necha oy davom etadigan tinim davrini o'taydi. Ertabahorda ularning bir qismidan (generativ kurtaklar) gul hosil bo'ladi va ikkinchi qismidan (vegentativ kurtaklar) novda shakllanadi. Qishki noqulay sharoitda bu kurtaklar bir necha qavat och qo'ng'ir rangli qipiqlar bilan qoplangan bo'ladi. Bu qipiqlar qalin qoplangan, sklereid to'qimalarga boy, ayrim hollarda po'kaklashgan, ba'zan ichki tomondan tuklar

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

bilan ta'minlangan bo'ladi. Bu moslanishlar suv bug'latishni minimal darajaga qadar kamaytirish, kurtakni sovuq urishidan va qushlar cho'qib zararlashidan saqlash vazifasini bajaradi. Erta bahorda kurtaklar uyg'onib, ildiz, poya va novdalari po'st qismidagi zaxira holdagi ozuqa moddalari hisobiga o'sa boshlaydi.

Bir pallali o'simliklar poyasining xarakterli xususiyatlari - ularda kambiyning bo'lmasligi, o'kazuvchi nay toifalari bog'lamlarining alohidaligi, ikkilamchi yo'g'onlanishning yo'qlik birlamchi po'st bilan markaziy o'q o'rtasida chegaraning yo'qligidadir. Bir pallali o'simliklarda prokambial bog'lamlar to'liq differensiallashgan. Shu sababli o'tkazuvchi bog'lamlar qopiq, shunday ekan kambiy bog'implari yo'q. Bir pallali o'simliklarning poyasi o'tkazuvchi bog'lamlar to'liq shakllangunga qadar yo'g'onlashadi. O'simlikda o'tkazuvchi naylar shakllangandan keyin ham poya ma'lum vaqtga qadar eniga o'sadi. Lekin bu o'sish prokambiy hisobidan bo'lmasdan, balki shakllangan parenxima to'qimalarining o'sishi hisobiga boradi. Yopiq o'tkazuvchi bog'lamlar parenximada tartibsiz ravishda joylashgan. Aniqrog'i, ular ko'pincha, bandning joylashuviga mos keladigan darajada spiral ravishda o'nashgan. Makkajo'xorining o'zagi g'ovaklashib, ko'kish tusga kiradi. Bu xususiyatni bug'doyning ayrim novdalarida ham kuzatish mumkin. Mustahkam to'qima epidermis ostida sklerenxima halqasini hosil qiladi. Mustahkam to'qima o'tkazuvchi naylarni yarim doira shaklida yoki butunlay har tomonlama o'sgan bo'lib, o'simlik poyasiga mustahkamlik beradi. Sklerenxima ko'priq shaklida bir bog'lamdan ikkinchi bog'imga sochilgandek joylashadi va ularning radial holda joylangan tolalari epidermagacha etadi. Sklerenximaning periferik qismi poyaga har qanday tashqi ta'sirga (shamol, bo'ron) bardosh bera oladigan mustahkamlik beradi, shu tufayli o'simlik poyasi egiluvchanlik, bukiluvchanlik qobiliyatiga ega. O'tkazuvchi nay bog'lamlar son jihatidan poyaning pastki qismida yuqori qismiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Chunki har bir bog'lam ma'lum balandlikda joylashgan bargdan chiqib, poya bo'ylab pastga yoyiladi. Bo'g'im oraligida, barg qo'ltig'ida joylashgan uyqu kurtaklaridan barglardan chiqadigan o'tkazuvchi bog'lamlar bo'gimlarda birlashib. qayta shakllanish sodir bo'ladi. Shu tufayli qo'ng'irboshdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning poya bo'gimlarida to'siqlar paydo bo'ladi.

Ikki pallali o'tsimon o'simliklarda kambiy qatlami mavjud bo'lib, uning shakllanishi turlicha bo'ladi. Ayrim o'simliklarda u birlamchi ksilema va floemaning erta paydo bo'lishi bilan yoppasiga qoplangan prokambiv halqasidan vujudga keladi. Boshqa o'sirnliklarda kambiy qatlamlari orasida yoki shakllanib bo'lgan o'tkazuvchi nay bog'lamlari orasida vujudga keladi va ular orasida o'zak parenximasi joylashgan bo'ladi. Bunday o'simliklarning (ayiqtovondoshlar - Ranunculaceaeda) poyasi juda

# FAN VA TADQIQOT SAMARALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

[www.academicsbook.com](http://www.academicsbook.com)

Vol: 1 Issue: 3 (2024)

yo'g'onlashmaydi. Poyaning ichki tuzilishining umumiy ko'rinishi bilan tanishgach, uning yupqa joyini tanlab, mikroskopning kattalashtirib ko'rsatadigan obyektivida kuzatiladi. Poyaning yuza qismida epidermaning nisbatan katta hujayralari ko'rindi. Epidermis kutikula bilan qoplangan. Epidermisning ostida po'stning mayda hujayrali xlorofill saqlovchi parenximasi joylashgan. Birlamchi po'st endoderma hujayralari qatori bilan tugaydi. Bu qator, odatda, kraxmal saqlovchi vlagaliua (nov) deb ataladi. Chunki nov hujayralarida ikkilamchi kraxmal to'planadi. Endoderma yodning kaliyli eritmasi ta'sir ettirilsa, aniq ko'rindi. Epiderma ostida qalin po'stli katta hujayralardan shakllangan eritma ta'sirida binafsharang oladigan lub tolalari joylashgan. Mikromer vintdan foydalanib, ularning qatlam-qatlam bo'lib joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Lub tolalarining ichki tomonida floemaning yupqa qatlami, uning ichki tomonida esa kambiy joylashgan. Undan ichkarida ksilema va poya markazi o'zakdan iborat hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, poyalar bir va ikki urug'pallalilarda bo'lishiga qarab yog'ochlashadigan va yog'ochlashmaydigan bo'ladi. Poyada o'tkazuvchi to'qimalar - yog'ochlik va lub mahkamlik to'qimalar bilan birga parenximada joylashgan nay bog'lamlariga (asosiy to'qima) yoki poyada yoppasiga joylashgan o'zakni o'rab turuvchi yog'ochlik silindri (po'stlog'i ajratib olingan daraxt poyasini eslang) va ikkilamchi kambiy va lubdan iborat qatlamni tashkil etgan to'qimalar guruhlaridan iborat bo'ladi. Asosiy farqi ikki urug'pallalilarda poya yog'ochlashgan, bir urug'pallalilarda esa yog'ochlashmagan va shuning uchun bir urug'pallalilarda daraxt va buta kabi hayotiy shakllar mavjud emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.S.Dariyev, T.A.Madumarov, F.Y.Ro'zmatov. "Botanika". Toshkent - "Ilm – ziyo", 2012.
2. Alisherovna, M. K. (2022). Assessment of investment attractivity of industrial enterprises.
3. O'.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov. "Botanika". Toshkent – 2010.
4. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 363-368.
5. S.M.Mustafaev."Botanika". Toshkent - "O'zbekiston", 2002.
- 6.